

ALISHER NAVOIY IJODIDA MUSIQANING TUTGAN O'RNI

*Andijon davlat pedagogika
instituti musiqa ta'lim
yo 'nalishi 3-bosqich talabasi
Abduqodirova Inoyatxon*

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy ijodida musiqa san'ati va cholg'u asboblarining tutgan o'rni yoritiladi. Garchi Navoiy musiqa nazariyasiga bag'ishlab alohida asar yozmagan bo'lsa-da, uning "Mahbubul qulub", "Majolis un-nafois" kabi asarlarida musiqiy tafakkur, cholg'ular nomi, hofiz va sozandalar haqidagi ma'lumotlar uchraydi. Maqolada Navoiy davrida keng tarqalgan ud, nay, tanbur, g'ijjak, rubob, qonun, doira kabi cholg'ular tahlil qilinadi. Shuningdek, musiqaning inson ruhiyati, tarbiyasi va estetik kamolotidagi ahamiyati mutafakkirning fikrlari orqali ochib beriladi. Navoiyning musiqiy obrazlar orqali estetik qarashlari, cholg'ularning ovoz ta'sirini obrazli tasvirlagani maqolaning asosiy tahlil yo'nalishini tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, musiqa san'ati, cholg'u asboblari, Mahbubul qulub, Majolis un-nafois, ud, nay, rubob, tanbur, g'ijjak, qonun, estetik tarbiya, musiqiy madaniyat, Navoiy davri, Sharq musiqasi, sozanda, hofiz, musiqiy tafakkur.

Аннотация: В статье рассматривается роль музыки и музыкальных инструментов в творчестве великого мыслителя и поэта Алишера Навои. Хотя Навои не написал отдельного труда по теории музыки, его произведения, такие как «Махбубул Кулуб» и «Маджолис ун-нафоис», содержат информацию о музыкальной мысли, названиях инструментов, хафизов и музыкантов. В статье анализируются такие инструменты, как уд, флейта, танбур, гиджак, рубаб, конун и дойра, которые были распространены во времена Навои. Значение музыки в психологии человека, образовании и эстетическом развитии также раскрывается через мысли мыслителя. Эстетические взгляды Навои через музыкальные образы и образное изображение звуковых эффектов инструментов составляют основное направление анализа статьи.

Ключевые слова: Алишер Навои, музыкальное искусство, музыкальные инструменты, Махбубул кулуб, маджолис ун-нафоис, уд, флейта, рубаб, танбур, гиджак, закон, эстетическое воспитание, музыкальная культура, эпоха Навои, восточная музыка, музыкант, хафиз, музыкальная мысль.

Abstract: This article examines the role of music and musical instruments in the work of the great thinker and poet Alisher Navoi. Although Navoi did not write a separate work on music theory, his works such as "Mahbubul Qulub" and "Majolis Un-Nafois" contain information about musical thought, the names of instruments, hafiz

and musicians. The article analyzes instruments such as ud, flute, tanbur, gijjak, rubab, qonun, and doira, which were widespread during Navoi's time. The importance of music in human psychology, education, and aesthetic development is also revealed through the thinker's thoughts. Navoi's aesthetic views through musical images and his figurative depiction of the sound effects of instruments constitute the main direction of analysis of the article.

Keywords: Alisher Navoiy, musical art, musical instruments, Mahbubul qulub, Majolis un-nafois, oud, flute, rubab, tanbur, gijjak, law, aesthetic education, musical culture, Navoiy's era, Eastern music, musician, hafiz, musical thought.

Ma'lumki, Alisher Navoiy musiqa nazaryasi va amalyoti masalalariga bag'ishlab, mahsus asar yaratmagan. Uning "Mahbubul qulub" asaridagi sozanda va xonandalarga bag'ishlangan qism bundan mustasnodir. Ulug' san'atkorning musiqa to'g'risidagi fikrlari va musiqaviy-estetik qarashlarini aks ettiruvchi faktlar uning adabiy, tarixiy va ilmiy xarakterdagi asarlarida sochilgan holdadir.

Navoiyning asarlarida o'z ifodasini topgan eng muhim masalalardan biri-musiqa cholg'ulari yoki sozlar masalasidir.

Musiqa cholg'ulari- musiqa madanyatining tarixiy tarqqiyot jarayonini aniqlashda hal etuvchi omillardan hisoblanadi.

Musiqa cholg'ulari turli tarxiy sharoitlarda musiqa madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilab beruvchi zo'r, ko'rgazmali manbalardadir. Navoiy davri musiqasi ustida gap borar ekan, o'sha davrlarda iste'molda bo'lgan sozlarni atroflicha, ilmiy asosda o'rganilishi -XIV – XV asrlardagi O'rta Osiyo va Xuroson xalqlarining musiqa madanyati taraqqiyoti darajasini aniqlashda ham katta yordam beradi.

Navoiy bobomiz yuksak aql zakovat egasi, san'atning shaydosi, nozik did egasi edi, u inson musiqani tinglaganda qalban zavqlangani sezilar edi. San'atshaydolariga borinki yosh avlodni unib qo'sishi uchun o'z mehnatini ayamagan mutafakkirlardan biri bo'lgan. Shaxs kamolotida, ma'niviy boy bo'lishida musiqa san'atini o'rni beqiyos deb bilgan.

Musiqani sevmagan shoир qalbi xuvillagan chorborg', xazon bo'lgan bahordir. «Musiani idrok etmagan shoир nim shoirdir», - deydi Navoiy.

Bu iboralar shoirning estetik didini yuksakligini ko'rish mumkin. Musiqa ilmi va san'ati haqida shoirning «Majolis un - Nafois» asarida batafsil yoritilgan. Mazkur asrning bir yuz o'n sakkizinchı betida Paxlavon Muxammad G'ushtig' haqida so'z borganda, uning davridagi shirinso'z va go'zal xulq bo'lganligidan darak beradi.

Mutafakkir bobomizning «Musiqiylar va advor ilmida davrning benazirdir» asari buning yaqqol misoli ekanligidan darak beradi.

Asrning 4-yig‘ilishida mashhur sozanda va hofiz Hofiz Muxammad Sultonshoxning benazir kuylari qalblarga oro bergenliklari haqida Ustod Qulmuxammad nomlar hurmat bilan tilga olinadi.

«Ustod Qulmuxammad – shibirgonliklar, deb yozadi Navoiy, - kichik yoshida g‘ijjak cholar edi. Qobiliyat asari ul fanda andin ko‘p zoxir erdi. Tarbiyatiga mashg‘ul bo‘lurdi... Ammo ud va g‘ijjak va qubuzni asrida oncha kishi chol olmas». «Majolis un-nafois, Nafoiy asarlari, 12 tom, 139 bet.

Shoirning tarbiya topgan muhiti adabiyot va san'atda sug‘orilganligi ularning asarlarini mazmunli ekanligidan dalolatdir. Mutafakkir shoirning avlodlari ichida xonnada va sozandalar bo‘lganligi kitoblarda yoritilgan.

A.Navoiy bobomiz ta‘kilashicha G‘aribiy ismli tog‘asi bo‘lib ul kishi ham go‘zal baytlar bitgani va cholg‘uni yaxshi chalgani asarlarida e’tirof etilgan. G‘aribiy A.Navoiyning tog‘asi bo‘lganligi uchun u kishi bilan ko‘p vaqt o‘tkazgar edi.¹

Navoiyning dostonlarida, devonlarida, “Mahbubul qulub”, “Majolisun nafois” kabi asarlarida juda ko‘p sozlar nomi tilga olinadi. Ular orasida ud, nay, g‘ijjak, tanbur, shang, rubob, qo‘buz, qonun, rud, shag‘ona, daf ya’ni doira, nog‘ora sholg‘ularining nomi juda ko‘p ushraydi. Bu cholg‘ularinng ayrimlari bizgacha yetib kelmagan. Ba’zilari O‘rta Osiyoda iste’moldan shiqib ketgan; ushinshi bir xillarining shakli o‘zgarib ketib, nomlari saqlanib saqlanib qolgan.

Ud sholg‘usi musiqa tarixining nazariy masalalarini tushuntirishda yetakshi cholg‘u bo‘lgan. Uning ko‘rinishi va yaratilishi borasida bugungi kunda aniq ma’lumot bor.

Cholg‘ularning tasvirlanganni “Mahbubul qulub” da batafsil bayon etilaganini nazarda tutsak bu cholg‘uni bekami ko‘st qilib yaratilganini ko‘rishimiz mumkin. Nay, g‘ijjak, qonun, daf, nog‘ora, sunray, karnay cholg‘ularini bizning davrgacha yetib kelgan ko‘rinishlarini ko‘rishimiz mumkin. Faqatgina pardalar joylashuvida ayrim o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Ilmiy manbalarda tanbur cholg‘usining ikki tori bo‘lganligi aytib o‘tilgan. Uning kamon va mezrob bilan shalinadigan turlari bo‘lgan. Lekin ko‘rinish shakli hozirsha noaniqidir.

Chag‘ona cholg‘usi hozirgi kunda Kavkaz, Turkiya va Eron xalqlarida bo‘lgan qonunga o‘xhash barmoqlar bilan tirkab chalingan. Qadimiy sozlardan- rubob arablarda kamonli cholg‘u bo‘lib, O‘rta Osiyoda chertib yoki tirkab chalinadi.

Navoiy davridagi dutor cholg‘usi XV asrning yetuk musiqa nazaryachisi Xusayniyning mazkur “Qonun” asarida tavsiflab berilgan. U vaqtarda dutor hozirgi shaklidan farq etgan va ud cholg‘usidan kichikroq, parda tuzilishi esa udnikiga o‘xhash bo‘lgan va muzrob bilan chertib chalingan.

¹ sharq-mutafakkirlari-musiqa-merosining-tarbiyaviy-imkoniyatlari-to-g-risida.pdf

Navoiy davri va undan avvalgi davrlarda chang sozi yoysimon shaklda bo‘lgan, hozirgi changdan tubdan farq etgan va barmoqlar bilan tirmab chalingan.

Shunday qilib, Navoiy davridagi musiqa cholg‘ularini o‘rganilishida qator noaniqliklarga duch kelinadi. Bu borada Navoiy asarlarida keltirilgan fikr va mulohazalar bizga katta yordam beradi. Navoiyning ba’zi asarlarida sozlarning ayrim sado berish xususiyatlari ustalik bilan, obrazli qilib chizib beriladi. Nay maftunkor, mayin sado beradi. G‘ijjakning sadosi yig‘loqi, tanburniki dilkash, ud va chang- yurakni ezuvchi, rubob yolvoruvchi, qo‘biz rohatbaxsh, qonun bilan chag‘onaning sadosi esa faryodu fig‘onga o‘xshash yangraydi. “Sabbai sayyor” da changning sadosi kishini tinchlantiruvchi, hayotbaxsh ekani ta’kidlanadi. Navoiy asarlarida va ularning shakllari masalasi ham aks ettirilgan.

Adabiyotlar:

- [1.1.] Umarov E., Estetika. Т., 1995. 6-b.
- [1.2.] Филонов, Г.Н. Критерии эффективности воспитательного процесса [Текст] / Г.Н. Филонов // Педагогика, 2014. – №4. – 92-112 с.
- [1.3.] Salamonova T.Ye., O‘zbek musiqasi tarixi. O‘quv qo‘llanma. Т., 1981. -21-b.
- [1.4.] Zokirjon Tohirovich Oripov. Sharq musiqiy manbashunosligi (X-XI asrlar) o‘quv qo‘llanma. Т., 2008. – 11-b.
- [1.5.] Musagitova, A. V. musiqa orqali ma’naviy-axloqiy tarbiya / A. V. Musagitova. - zamonaviy dunyoda ta’lim nazariyasi va amaliyoti: I xalqaro ilmiy konferensiya materiallari (Sankt-Peterburg, 2012 yil fevral). - Jild. 1. - Sankt-Peterburg: Renome, 2012. - 202-204 betlar. - URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/21/1868/>
- [1.6.] Kalnitskaya, N. S. Can'at vositasida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash / IV xalqaro ilmiy konferensiya materiallari (Perm, 2013 yil iyul). - Jild. 0. - Perm: Merkuriy, 2013. - 22-24 betlar. - URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/72/4091/>
- [1.7.] Выготский, Л.С. Психология искусства. – М.: Искусство, 1986. –397 с.
- [1.8.] Гозман, Л.Я. Психология эмоциональных отношений / Л.Я. Гозман - М., Изд-во МГУ, 2002.- 236 с.
- [1.9.] Холопова В. Я. Музыкальные эмоции. М., 2010. С. 93.
- [1.10.] Ямвлих Халкидский. Жизнь Пифагора. М.: Алетейя. 1997. С. 83—84
- [1.11.] Ботирова, Хилола. "The practice of applying pedagogical technologies in the learning process to playing the Chang instrument." Общество и инновации 2.3/S (2021): 330-339.
- [1.12.] Tursunbaevna, Botirova Xilola. "New approach to vocal-choral skills." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.4 (2021): 1638-1654.
- [1.13.] Tursunbaevna, Botirova Xilola. "Methods for Improving Thoretical Knowledge of Music of Elementary School Students."International Journal on Integrated Education 3.4: 4-10.

[1.14.] Botirova, Khilola Tursunbaevna. "METHODS OF DEVELOPING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF YOUNG STUDENTS THROUGH THE UZBEK PEOPLE'S PERFORMING ART." Chief Editor.

[1.15.] Botirova, Khilola Tursunbaevna. "PERFORMANCE AND ART." mankind 3: 3-300.

[1.16.] Tursunbaevna, Botirova Hilola. "CREATIVITY-THE BASIS OF PEDAGOGICAL CREATION." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.12 (2019).

[1.17.] Tursunbaevna, Botirova Khilola. "The Importance of Aesthetic Education in the Formation of Performance and Creative Skills of Students in Music Lessons in Secondary Schools." JournalNX 7.05: 69-72.

<https://vospitanie.guru/esteticheskoe/vospitanie-iskusstvom>

<http://www.dslib.net/polit-sociologiya/muzykalnaja-kultura-kak-faktor-formirovaniya-duhovnyh-cennostej-studencheskoj.html>

https://yrok.pf/library/duhovnonravstvennoe_vospitanie_molodezhi_posredstvo_142_328.html